
MUROJAATLAR IJOBIY HAL ETILMOQDA

Bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshloq tumani Xalq qabulxonasida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayevning navbatdagi qabuli o'tkazildi.

Qabulda fuqarolar o'zlarining qiynab kelayotgan turli muammolarini tuman hokimiga to'g'ridan to'g'ri murojaat etdilar. Har bir murojaatni joyida hal etish maqsadida tashkilot va korxonalar rahbarlarining ishtiroki ta'minlandi.

Unda 30 nafar fuqarolarning murojaatlari eshitildi. Moddiy yordam ajratish, ishga joylashish, imtiyozli kredit olish, gaz, suv, elektr ta'minotini yaxshilash kabi 15 ta murojaat joyning o'zida ijobiy hal etilib, 2 nafar fuqaroga moddiy yordam ajratildi. Qo'shimcha o'rganish, muddat talab etilgan 3 tasi nazoratga olindi. 10 ta murojaatga atroflicha tushuntirishlar berildi.

2023-04-04 15:26:00